# MUHANDISLIK
# & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**

**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*

*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



*ISSN: 3060-463X*

РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT ARXITEKTURA - QURILISH UNIVERSITETI

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 2026-yil, iyun.*



**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI ....10
**I. R. Berdikulova**
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI ....14
**Onorboev Sh.M.**
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER....26
**Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna**
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI....36
**Rahimova Volida Karim qizi**
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL....42
**Nigmatjonov Sardor Abdumannobovich**
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД ....49
**Дониёрова Зухрабону Алишер кизи**
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ...53
**Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna**
MOLIYAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI....58
**Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira**
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH....61
**Davletov Ikrom Raximberganovich**
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА ....67
**Салихова Алина Муратовна**
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI ....73
**Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon**
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR....78
**Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon**
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI ....83
**Sodiqova Nigora**
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI....89
**Muminov Bekzod Polvonovich**
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ....95
**Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна**
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI....103
**G'aniyev Elyor Sobirjonovich**
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY ....110
**Damirjon Nurmatovich Soliyev**

О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ........116
**Джумаев Аскар Хайдарович**
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILIY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR........121
**Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich**
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI........127
**Muminov Obidjon Odilovich**
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI........135
**Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich**
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ........141
**Джуманов А.А.**
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH........152
**B.I. Isroilov, B.B. Ibragimov**
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ........158
**Мамутова Айгуль Калмурзаевна**
QUYOSH HOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODELI........165
**M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov**
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ........172
**Алиев Али Комил угли, Каримова А.**
ISTE'MOL KREDITLARINING AHAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI........176
**S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov**
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI........179
**Raximov Azamat Hamroqulovich**
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIJ TAJRIBASI........183
**Ozodova Farida Zarif qizi**
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОТОВАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ........187
**Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна**
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEXANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, BAHO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH........192
**Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi**
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА........200
**Тураева А. И.**
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS........204
**Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li**
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ........208
**Ибрагимов Гайратжон Артикович**
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOIY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI........216
**Alimov Nasimjon Hoshimovich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ........ 221
**Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна**
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI ........ 228
**Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi**
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI ........ 233
**Ismailov Naufal Nadirovich**
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ........ 241
**Eshqobulova Charos O'roq qizi**
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING ........ 245
**Begzod Nishanov**
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL ........ 251
**Abdullayev Azamat Akbar o'g'li**
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI ........ 259
**Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza**
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. ........ 263
**Murodov Sherzodbek Murod o'g'li**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Murodov Sherzodbek Murod o‘g‘li**
TIQXMMI doktoranti,
TMC instituti
“Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti
ORCID: 0000-0001-8857-1729
E-mail: murodsherzod@gmail.com

**Annotatsiya.** Meva-sabzavotchilik quyi majmuasida logistik jarayonlarni boshqarish texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Logistika jarayonlarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga ta’sir etuvchi omillar o‘zaro bog‘liqlikda va qiyosiy tahlil asosida baholangan.

**Kalit so‘zlar:** logistika, logistik jarayonlar, boshqaruv, samaradorlik, tahlil, baholash, texnologiyalar, savdo, iste’molchi, yetkazib beruvchi.

**Abstract.** The theoretical and practical aspects of developing technologies for managing logistics processes in the fruit and vegetable sub-complex, as well as their specific characteristics, are examined. Factors influencing the improvement of logistics management efficiency through the implementation of modern technologies are evaluated based on comparative and interrelated analysis.

**Keywords:** logistics, logistics processes, management, efficiency, analysis, evaluation, technologies, trade, consumer, supplier.

**Аннотация.** Исследованы теоретические и практические аспекты развития технологий управления логистическими процессами в плодоовощном подкомплексе, а также их специфические особенности. На основе сравнительного и взаимосвязанного анализа проведена оценка факторов, влияющих на повышение эффективности управления логистическими процессами посредством внедрения современных технологий.

**Ключевые слова:** логистика, логистические процессы, управление, эффективность, анализ, оценка, технологии, торговля, потребитель, поставщик.

## KIRISH

Meva-sabzavotchilik kichik majmuasi ko‘plab iqtisodiyotlarning asosi bo‘lib, sanoat uchun oziq-ovqat va xomashyo yetkazib beradi. Shunga qaramay, ushbu sektor logistika va transport jarayonlarini takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalarga duch keladi. Oziq-ovqat ishlab chiqarish va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash ochlik ko‘lamini kamaytirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Maqsad hosildorlikni oshirish orqali ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishdan iborat bo‘lsa-da, yaqin vaqtgacha oziq-ovqat ta’minoti zanjiridagi yo‘qotishlarni minimallashtirish masalasiga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Logistika tizimlarining samaradorligini oshirish va transport xizmatlarini takomillashtirish xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash hamda mahsulot sifatini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Terminologik lug‘atda logistika “xomashyo va materiallarni ishlab chiqarish korxonasiga yetkazish, korxona ichida xomashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash, tayyor mahsulotni iste’molchining manfaatlari va talablariga muvofiq yetkazib berish, shuningdek, tegishli axborotlarni uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonida amalga oshiriladigan tashish, saqlash hamda boshqa moddiy va nomoddiy operatsiyalarni rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish haqidagi fan” sifatida ta’riflanadi [1]. Ushbu ta’rifda logistika tushunchasining ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi ustunlik qiladi. Bu holat sanoat industrializatsiyasi

davridayoq ishlab chiqarish, ta'minot va sotish funksiyalarini kompleks integratsiyalash g'oyasining shakllanganligi bilan bog'liq. Mazkur g'oyani amaliyotga tatbiq etish natijasida eng yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda hisoblash texnikasi vositalaridan keng foydalanish asosida korxona faoliyatini boshqarishning integratsiyalashgan tizimlari ishlab chiqildi.

So'nggi yillarda ushbu atamaning yangi talqinlari ham paydo bo'ldi. Xususan, A.I. Semenenko quyidagi ta'rifni taklif etadi: "Logistika – bu, avvalo, muayyan ilg'or tafakkur va metodologiya bo'lib, u keng ko'lamli ishlab chiqarish-xo'jalik (tarmoq, mintaqaviy, xalq xo'jaligi) tashkilotlari hamda yirik miqyosdagi tadbirkorlik va tijorat faoliyatida eng samarali hisoblanadi" [2]. Bizning fikrimizcha, agrobiznesga nisbatan logistikaning mohiyatini V.A. Klyukach eng to'liq ifodalab bergan. U logistikani "iste'molchilarning ehtiyojlarini minimal umumiy xarajatlar evaziga imkon qadar maksimal darajada qondirishni ta'minlaydigan moddiy va axborot oqimlarini boshqarishning integratsiyalashgan jarayoni" sifatida tavsiflaydi [1]. Logistikaning ushbu ta'rifiga "xarid logistikasi", "transport-ombor logistikasi", "sotish logistikasi" va "taqsimot logistikasi" kabi tushunchalar to'liq mos keladi. Mazkur jarayon xo'jalik faoliyatining barcha bosqichlarini – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib, ularni qayta ishlash, saqlash, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish va iste'molchiga xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Ulgurji savdo iqtisodiyotning o'ziga xos sohasi bo'lib, u bozor kon'yunkturasining xususiyatlariga muvofiq korxonalar o'rtasida tovarlarni xarid qilish va sotish, shuningdek, ularni ishlab chiqaruvchi korxonalardan chakana savdo korxonalariga yetkazib berish bo'yicha vositachilik funksiyalarini bajarishga qaratilgan savdo-iqtisodiy munosabatlar shaklini ifodalaydi [3].




1-rasm. Ulgurji savdo tashkilotlarining asosiy shakllari[1]

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqatning ulgurji taqsimoti jarayoni murakkab texnologik mexanizmni tashkil etadi. Bu jarayon qishloq xo'jaligi yoki sanoat ishlab chiqaruvchisi tomonidan mahsulot ishlab chiqarish bosqichi yakunlanganda boshlanib, mahsulotni chakana savdo korxonalari (oziq-ovqat do'konlari, umumiy ovqatlanish korxonalari), davlat muassasalari va boshqa iste'molchilarga sotish hamda yetkazib berish bilan yakunlanadi. Infratuzilma nuqtai nazaridan ulgurji savdo — bu tovarlarni yirik turkumlarda sotib oladigan va (yoki) saqlaydigan hamda ularni chakana savdo korxonalariga, boshqa savdo tashkilotlariga va (yoki) iste'molchi tashkilotlarga qayta sotadigan tashkilotlar majmuyidir. Shunday qilib, ulgurji savdo

1 Muallif ishlanmasi

korxonalari tovar aylanishi tizimida oʻziga xos oʻrin egallab, ishlab chiqaruvchilar va isteʼmolchilar oʻrtasidagi munosabatlarni taʼminlovchi bogʻlovchi boʻgʻin vazifasini bajaradi. Ulgurji korxonalar shakllarining xilma-xilligi 1-rasmda keltirilgan.

Taʼminot logistikasi yetarli darajada oʻrganilgan boʻlsa, tarqatish (sotish) logistikasi mamlakatimiz nazariyasi va amaliyotida rivojlanish bosqichida hisoblanadi. Tijorat faoliyati bilan bogʻliq holda taqsimot ikki xil maʼnoga ega:

– birinchidan, tovarlarni kelishilgan yoki tizimli ravishda joylashtirish va yetkazib berish;

– ikkinchidan, tovarlar va xizmatlarni isteʼmolchilar ixtiyoriga yetkazib berish maqsadida amalga oshiriladigan operatsiyalarning butun majmuasi [4].




2-rasm. Logistika konsepsiyasining umumiy tamoyillariga asoslangan taqsimot logistikasi yoʻnalishlari[2]

Taqsimot logistikasi logistik konsepsiyalarga asoslanadi, xususan:

Tovar ishlab chiqaruvchining yakuniy operatsiyalaridan tortib isteʼmolchiga xizmat koʻrsatishgacha boʻlgan barcha tovar harakati jarayonlarini muvofiqlashtirish.

Tayyor mahsulot va xizmatlarni taqsimlash jarayonlarini boshqarishning barcha funksiyalarini, maqsad qoʻyishdan tortib nazorat qilishgacha boʻlgan bosqichlarni integratsiyalash. Bunda tayyor mahsulotlar va xizmatlarni maqsadli yoʻnaltirishdan tortib nazorat qilishgacha boʻlgan barcha bosqichlar qamrab olinadi.

Tijorat, kanal va jismoniy taqsimotni bozorning doimiy oʻzgarib borayotgan talablariga, eng avvalo, xaridorlar ehtiyojlariga moslashtirish.

Tizimlilik, yaʼni taqsimotni yaxlit boshqaruv tizimi sifatida tashkil etish hamda sotish faoliyatining barcha elementlari oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni taʼminlash.

Komplekslik, yaʼni xaridorlarning toʻlov qobiliyatiga ega talabini qondirish bilan bogʻliq barcha masalalar majmuini hal etish.

Optimallik va ratsionallik, yaʼni alohida tashkiliy tuzilma elementlari hamda boshqaruv tizimini tashkil etish samaradorligini taʼminlash.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozorning rivojlanishi shu bilan ahamiyatliki, hozirgi kunda koʻplab firmalar oʻz faoliyati samaradorligini oshirishga intilib, koʻpincha oʻz ishlarida u yoki bu darajada logistik usullarni qoʻllamoqda va shu orqali raqobat ustunligiga erishmoqda. Iqtisodiy, jumladan, sotish tizimlari inson faoliyatining mahsuli hisoblanadi. Insonning sotishni tashkil etishdagi muhim roli obyektiv kuchlar va omillarning taʼsirini inkor etmaydi. Samarali sotish tizimini yaratish obyektiv qonuniyatlar va subyektiv omillarning oqilona uygʻunligi asosida amalga oshiriladi. Savdo xususiyatiga ega logistika tizimining sxemasi 3-rasmda keltirilgan.

2 Muallif ishlanmasi




3-rasm. Meva-sabzavotchilikda savdo (tijorat) logistika tizimi

Shu sababli, logistikani boshqarish meva-sabzavotchilik kichik majmuasi va umuman qishloq xo‘jaligi sektori uchun muhim ahamiyatga ega. Fermerlar uchun “ishlab chiqaruvchidan iste’molchigacha” tamoyili asosida mahsulotlarni tashish samaradorligini belgilovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

– fermer xo‘jaligi bilan bozor o‘rtasidagi masofa (tashish masofasi). Ushbu ko‘rsatkich uzoq yoki qisqa masofalarga qarab kilometr yoki millarda o‘lchanadi;

– yer usti transportida tashish vaqti. Bu ko‘rsatkich ob-havo sharoiti, transport vositasining yuk ko‘tarish qobiliyati hamda yo‘llarning holati va mavjudligi kabi omillarga bog‘liq;

– havo, dengiz va yer usti transporti turlarida tashish xarajatlari. Transport turini tanlashda tashish qiymati, tezligi va mahsulot xususiyatlari muhim omil hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida logistika tizimlari samaradorligini yanada oshirish uchun e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan bir qator yo‘nalishlar mavjud. Logistika tizimlari va jarayonlarini takomillashtirish orqali qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyat samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda iste’molchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Quyida qishloq xo‘jaligi korxonalarining samaradorligini oshirish uchun e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan ayrim masalalar keltirilgan:

– fermer xo‘jaligi chekka hududda yoki transport-kommunikatsiya infratuzilmasi cheklangan hududda joylashgan bo‘lishi mumkin. Bu holat mahsulotni ishlab chiqaruvchidan (qayta ishlovchidan) bozorga yetkazib berish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi [7];

– oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va mahsulot yo‘qotishlarini kamaytirish maqsadida oziq-ovqat ta’minoti zanjiridagi yo‘qotishlarni minimallashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi;

– narx mo‘ljallari, iste’molchilar talabi va taklif cheklovlari haqidagi axborotlarning yetarli darajada shakllanmaganligi logistika jarayonlarini boshqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish xarajatlari va bozor natijalarida o‘z aksini topadi;

– resurslar va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari harakati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Turli mintaqalarda transport-logistika xizmatlari bozorini tadqiq qilish, tovar oqimlari dinamikasini o‘rganish va xizmatlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Mahalliy yuk oqimlarining o‘zgarishi ishlab chiqarish hajmlari hamda eksport qilinadigan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar hajmidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Yetkazib berish zanjirining hamkori sifatida agrosanoat mahsulotlari bozoriga kirish nafaqat transport, balki logistika xizmatlarini ko‘rsatuvchi kompaniyalar uchun ham yangi imkoniyatlarni yaratadi [8].

Turli hududlardagi qishloq xo‘jaligi korxonalari rahbarlari mahsulot yetkazib berishda shartnoma logistikasi rivojlanishining quyidagi omillarini ta’kidlaydilar:

• mahsulotning yakuniy narxiga samarali ta’sir ko‘rsatish maqsadida ta’minot zanjirini nazorat qilish zarurati;

• yetkazib berish sifatini ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligi yuklarini tashishga mos ixtisoslashtirilgan transport vositalarini tanlash zarurati;

• xomashyo va tugallanmagan ishlab chiqarishni yetkazib berish bo‘yicha namunaviy rejalarni yuritish zarurati;

• shahar yoki viloyat distribyutorlik tizimida savdo nuqtalarini yanada kengroq qamrab olish zarurati;

• qishloq xo‘jaligi kompaniyalarining transport-logistika xizmatlari bozorining istiqbolli segmentlarini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrokompaniyalarni transport-logistika kompaniyalari bilan integratsiyalashuviga rag‘batlantirish klaster faoliyatining bir qator tashkiliy shart-sharoitlari orqali ta’minlanishi mumkin. Birinchidan, kompaniyalarning o‘zaro hamkorligi qishloq xo‘jaligi birlashmasi tomonidan nazorat qilinadigan shartnomaga asoslanadi. Bu esa transport-logistika kompaniyasining yetkazib berish shartlariga rioya etishini ta’minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, klaster tarkibidagi transport-logistika kompaniyasini tanlash uning infratuzilmaviy jihozlanganligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tajribasi, shuningdek, faoliyat samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirilishi lozim [9].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– qishloq xo‘jaligida shartnomaviy logistika bozori rivojlanish va o‘sish bosqichida hisoblanadi;

– agrobiznes sohasida logistika kompaniyalarini integratsiyalash jarayonida mahsulot sifatini saqlash va yetkazib berish muddatlariga rioya etish bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda;

– turli xil mahsulotlarni yetkazib berishda maxsus texnika va transport vositalarini tanlash muhim tashkiliy vazifalardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. Aleksandrov, O. A. Logistika: o‘quv qo‘llanma / O. A. Aleksandrov. – Moskva: INFRA-M, 2020. – 217 b.
2. Anikin, B. A. Ishlab chiqarish logistikasi: nazariya va amaliyot: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik va praktikum / B. A. Anikin, R. V. Serishev, V. A. Volochiyenko; mas’ul muharrir B. A. Anikin. – Moskva: Yurayt nashriyoti, 2021. – 454 b.
3. Bochkarev, A. A. Shahar transport tizimlari logistikasi: o‘rta kasb-hunar ta’limi uchun o‘quv qo‘llanma / A. A. Bochkarev, P. A. Bochkarev. – 2-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan. – Moskva: Yurayt nashriyoti, 2022. – 150 b.
4. Gerami, V. D. Shahar logistikasi. Yuk tashish: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / V. D. Gerami, A. V. Kolik. – Moskva: Yurayt nashriyoti, 2022. – 343 b.
5. Пурлик В. М. Рынок инвестиционных товаров и логистика. – М.: Международный университет бизнеса и управления, 2007.
6. Нуралиев С. У. Продовольственный рынок. Проблемы становления и перспективы развития. – Волгоград: ВГУ, 2002.
7. Неруш Ю. М. Логистика: учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000.
8. Линдерс М. Р., Фирон Х. Е. Управление снабжением и запасами. Логистика / пер. с англ. – СПб.: Полигон, 2009.
9. Болт Г. Дж. Практическое руководство по управлению сбытом. – М.: Экономика, 1991.
10. Бауэрсокс Д. Дж., Клосс Д. Дж. Логистика. Интеграционная цепь поставок. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2001.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**